**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bir yo‘lli temir yo‘l uchastkalarida poyezdlarni to‘xtamasdan kesishish texnologiyasini joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu texnologiya poyezdlar harakatining uzluksizligini ta‘minlash, ortiqcha to‘xtash va kutish vaqtlarini kamaytirish hamda mavjud infratuzilmadan samarali foydalanishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida razyezdlarning zaruriy uzunligini aniqlash bo‘yicha hisobiy yondashuv ishlab chiqilib, poyezd uzunligi, yon yo‘lga kirish tezligi, asosiy yo‘ldan o‘tish tezligi, tormoz yo‘li uzunligi hamda poyezdlarning kesishish nuqtasiga yetib kelishidagi vaqt farqi asosida tegishli matematik bog‘lanishlar keltirilgan. Shuningdek, poyezdlarning to‘xtamasdan kesishish jarayonining sxematik modeli ishlab chiqilib, uning asosiy parametrlariga ta‘sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Buxoro-1 – Miskin temir yo‘l uchastkasi misolida mavjud harakat sharoiti o‘rganilib, peregonlar



bo'yicha harakat vaqtlari tahlil qilindi hamda uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyati baholandi. Shuningdek, mavjud sharoitda poyezdlarni kesishish sxemalari tahlil qilinib, ularning o'tkazuvchanlikka ta'siri aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, poyezdlarni to'xtamasdan kesishish texnologiyasini joriy etish orqali uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyatini 10 foizgacha oshirishga imkon beradi. Bu esa poyezdlar harakatining samaradorligini oshirish, harakat jadvalining barqarorligini ta'minlash hamda temir yo'l uchastkalaridan foydalanish darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** bir yo'lli temir yo'l uchastkasi, razyezd, poyezdlarni kesishish, poyezdlarni to'xtatmasdan kesishish, o'tkazuvchanlik qobiliyati, poyezdlar harakati grafigi, foydali uzunlik.

### **Kirish**

O'zbekiston temir yo'l transportida bir yo'lli uchastkalar ustunlik qilib, ularning ulushi umumiy temir yo'l tarmog'ining 87,8% ini tashkil etadi. Bu esa poyezdlar harakatini tashkil etishda uchastkalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish masalasini dolzarb muammoga aylantiradi [1].

2015-2025 yillarga mo'ljallangan poyezdlar harakati grafiglari tahlili shuni ko'rsatdiki, qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanuvchi yuk poyezdlari kesishish jarayonida o'rtacha 40% ortiqcha vaqt zaxirasiga ega [1]. Ushbu ortiqcha vaqt poyezdlarning razyezd va stansiyalarda uzoq muddat kutib turishiga olib keladi, natijada yo'llarning bandligi ortadi va uchastkalarining o'tkazuvchanlik qobiliyati pasayadi.

An'anaviy sharoitda poyezdlar razyezd punktlarida to'xtab kesishadi, bu esa poyezdlar orasidagi intervalning ortishiga va harakat jadvalining samaradorligining kamayishiga olib keladi. Natijada bir yo'lli uchastkalarda mavjud infratuzilmadan to'liq foydalanish imkoni cheklanadi.

Shu sababli poyezdlarni to'xtamasdan kesishish texnologiyasini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiya razyezdlarni optimal loyihalash orqali poyezdlar harakatini to'xtatmasdan tashkil etish imkonini beradi va natijada uchastkalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi bir yo'lli temir yo'l uchastkalarida poyezdlarni to'xtamasdan kesishishni ta'minlash uchun razyezdlarni loyihalash usullarini o'rganish, zaruriy uzunlikni hisoblash hamda ushbu texnologiyaning uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ta'sirini baholashdan iborat.

### **Adabiyotlar tahlili**

Temir yo'l transportining bir yo'lli uchastkalarda poyezdlar harakatini tashkil etish va ularning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish masalalari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda asosan razyezdlarning konstruktiv tuzilishi, ularning joylashuvi va poyezdlar harakatini boshqarish usullari tahlil qilingan. So'nggi tadqiqotlarda poyezdlar harakati grafiglarini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratilib, ayniqsa, bir yo'lli uchastkalarda poyezdlarning o'zaro kesishish jarayonida yuzaga keladigan kechikishlarni kamaytirish masalalari o'rganilgan.



Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, temir yo'l uchastkalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish ikki asosiy yo'nalish, tashkiliy va texnik yechimlar orqali amalga oshiriladi.

Tashkiliy yondashuvlarda poyezdlar harakati grafiklarini optimallashtirish, ularning tezligini moslashtirish hamda harakat jarayonini boshqarish usullarini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Jumladan, Xusenov U.U. va Suyunbayev Sh.M. [1] tadqiqotida bir yo'lli temir yo'l uchastkalarida poyezdlarning o'zaro kesishish jarayonini energiya samaradorligi asosida optimallashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Mualliflar poyezdlar tezligini moslashtirish orqali ortiqcha kutish vaqtlarini kamaytirish va harakat grafigini muvozanatlashtirish mumkinligini asoslab bergan. Natijada ushbu yondashuv uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyatini yaxshilashga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Khusenov U.U. va boshqalarning [2] izlanishlarida "Angren-Pop" temir yo'l uchastkasining o'tkazuvchanlik va tashish qobiliyatini oshirish masalalari tahlil qilingan. Mualliflar poyezd og'irligi va harakat tezligini optimallashtirish asosida uchastkaning maksimal imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan matematik modelni taklif etganlar. Natijada ushbu yondashuv orqali uchastkaning tashish qobiliyatini sezilarli darajada oshirish mumkinligi asoslab berilgan. Amit I. va Goldfarb D. [3] tomonidan olib borilgan tadqiqotda temir yo'l poyezdlar harakati grafiklarini tuzish masalasi matematik optimizatsiya muammosi sifatida ko'rib chiqilgan. Mualliflar poyezdlar harakatini muvofiqlashtirish va kesishish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun nazariy asoslarni ishlab chiqqanlar. Ushbu ish temir yo'l transportida harakat jadvalini optimallashtirish bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Yang L., Li K., Gao Z. [4] tadqiqotida temir yo'l tarmog'ida poyezdlar harakatini optimallashtirish masalasi kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqilgan. Mualliflar poyezdlar harakatini muvofiqlashtirish va resurslardan samarali foydalanish orqali tizimning umumiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Natijada ushbu yondashuv temir yo'l tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Xu X., Li K., Yang L., Ye J. [5] tadqiqotida bir yo'lli temir yo'l uchastkalarida poyezdlar harakati grafiklarini tezlikni optimallashtirish asosida muvozanatlashtirish masalasi ko'rib chiqilgan. Mualliflar poyezdlar tezligini moslashtirish orqali kesishish jarayonini muvofiqlashtirish va kechikishlarni kamaytirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Natijada ushbu yondashuv uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tashkiliy yechimlar poyezdlar harakati grafiklarini optimallashtirish orqali o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu yondashuvlarda temir yo'l infratuzilmasining real holati yetarli darajada inobatga olinmagan. Xususan, razyezdlarning uzunligi, joylashuvi va geometrik parametrlari kabi muhim omillar chuqur tahlil qilinmagan. Shuningdek, poyezdlarni to'xtamasdan kesishish imkoniyatini belgilovchi texnik va ekspluatatsion sharoitlar ham yetarlicha hisobga olinmagan. Natijada bu yondashuvlar amaliyotda qo'llanishi cheklangan bo'lib, o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish masalasini kompleks hal etishni talab qiladi.

Texnik yondashuvlarda esa temir yo'l infratuzilmasini takomillashtirish orqali o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Jumladan, razyezdlarning optimal uzunligi va joylashuvini aniqlash orqali poyezdlar kesishishini samarali tashkil etish



mumkinligi asoslab berilgan. Shuningdek, kesishish jarayonini muvozanatlashtirish va harakatni barqarorlashtirishga qaratilgan texnik yechimlar taklif etilgan. Jumladan, Dorfman M. va Medanic J. [6] tadqiqotida temir yo‘l tarmog‘ida poyezdlar harakatini rejalashtirish masalasi diskret hodisalar modeli asosida o‘rganilgan. Mualliflar harakat jarayonini modellashtirish orqali poyezdlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni va kechikishlarni aniqlash imkoniyatini ko‘rsatganlar. Natijada ushbu yondashuv poyezdlar harakatini samarali boshqarish va temir yo‘l tarmog‘ining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Higgins A., Kozan E., Ferreira L. [7] tadqiqotida bir yo‘lli temir yo‘l uchastkalarida poyezdlar harakatini optimal rejalashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Mualliflar poyezdlar kesishish jarayonini samarali tashkil etish va kechikishlarni kamaytirish uchun matematik model taklif etganlar. Natijada ushbu yondashuv uchastkaning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. International Union of Railways (UIC) [8] tomonidan ishlab chiqilgan UIC Code 406 hujjatida temir yo‘l uchastkalarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini baholash va oshirish usullari bayon etilgan. Unda infratuzilma elementlari, jumladan razyezdlar va yo‘l uchastkalarining yuklanish darajasini aniqlash bo‘yicha metodik yondashuvlar keltirilgan. Ushbu metodika temir yo‘l tizimining real o‘tkazuvchanligini aniqlash va uni oshirish bo‘yicha muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Pacht J. [9] tomonidan yozilgan “Railway Operation and Control” asarida temir yo‘l harakatini tashkil etish va boshqarishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Unda stansiyalar, razyezdlar va signalizatsiya tizimlarining harakat samaradorligiga ta’siri batafsil tahlil qilingan. Ushbu manba temir yo‘l infratuzilmasi parametrlarini aniqlash va o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish bo‘yicha muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Szpigel B. [10] tadqiqotida bir yo‘lli temir yo‘l uchastkalarida poyezdlar harakatini optimal rejalashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Muallif poyezdlar kesishish jarayonini matematik modellashtirish asosida tahlil qilib, samarali jadval tuzish usullarini taklif etgan. Ushbu yondashuv poyezdlar harakatini muvofiqlashtirish va uchastkaning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan texnik yechimlarlar temir yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish orqali o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu yondashuvlarda poyezdlar harakati jarayonining tashkiliy jihatlari yetarli darajada inobatga olinmagan. Xususan, poyezdlar harakati grafiklarini optimallashtirish va tezlikni moslashtirish kabi omillar bilan bog‘liq masalalar chuqur tahlil qilinmagan. Shuningdek, harakat jarayonida yuzaga keladigan kechikishlar va ularning o‘zaro ta’siri kompleks tarzda hisobga olinmagan. Natijada bu yondashuvlar infratuzilma imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilsa-da, umumiy harakat samaradorligini to‘liq ta’minlab bera olmaydi.

Mazkur maqolada bir yo‘lli temir yo‘l uchastkalarida poyezdlarni to‘xtamasdan kesishish orqali o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Unda razyezdlarning zaruriy uzunligini aniqlash bo‘yicha hisobiy yondashuv taklif etiladi. Natijada ushbu yechim orqali uchastkaning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish va poyezdlar harakat samaradorligini yaxshilash imkoniyati asoslab beriladi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda bir yo‘lli temir yo‘l uchastkalarida poyezdlar kesishish jarayonini tahlil qilish va ularni to‘xtamasdan tashkil etish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida nazariy va

hisobiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida poyezdlar harakati parametrlari, ularning tezligi, uzunligi hamda kesishish vaqt farqi asosiy omillar sifatida qabul qilindi.


Hisoblashlar mavjud metodik yondashuvlarga asoslangan holda bajarilib, razyezd uzunligini aniqlash uchun matematik bog‘lanishlar ishlab chiqildi. Shuningdek, turli harakat sharoitlari uchun poyezdlarning kesishish jarayoni modellashtirildi va poyezdlarning raxyezddagi optimal harakatini tashkil etishga xizmat qiladi.

### Razyezdda poyezdlarni o‘zaro kesishtirish texnologiyasi

Bir yo‘lli temir yo‘l uchastkalarida poyezdlarni kesishtirish va quvib o‘tish uchun razyezdlar loyihalanaadi. Qabul-jo‘natish yo‘llarining joylashuviga ko‘ra razyezdlar bo‘ylama (bir tomonlama va qarama-qarshi tomonlama) (1-a va b rasmlar), yarim bo‘ylama va ko‘ndalang turlarga bo‘linadi (2-a va b rasmlar). Razyezd turini aniqlashda temir yo‘l liniyasining kategoriyasi, harakat miqdori, loyihalash uchun ajratilgan stansiya maydonining uzunligi, yon yo‘llarining rejasi va profili hisobga olinadi.

Bo‘ylama turdagi razyezdlar avtoblokirovka va dispetcherlik markazlashtirilgan boshqaruvi sharoitida eng samarali hisoblanadi. Bo‘ylama turdagi razyezdlarni loyihalash uchun 2000-2450 m uzunlikdagi maydoncha talab etiladi.


Qabul-jo‘natish yo‘llari bo‘ylama bir tomonlama joylashtirilgan razyezd sxemasi (1a-rasm) yaqin yillarda ikkinchi asosiy yo‘l qurilishi rejalashtirilgan liniyalarda qo‘llash uchun eng maqsadga muvofiq va asosiy hisoblanadi. Bunday sxema poyezdlar kesishish intervalini kamaytirish va uchastkalar uzunligini qisqartirish hisobiga yondosh uchastkalarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish imkonini beradi.



1-rasm. Bo‘ylama turdagi razyezdlar sxemasi: a – yo‘llari bir tomonlama joylashgan; b – yo‘llari qarama-qarshi joylashgan;  $L_{st}$  – stansiya maydonchasining uzunligi; YB – yo‘lovchi binosi

Qabul-jo‘natish yo‘llari bo‘ylama qarama-qarshi tomonlarda joylashtirilgan razyezdlar (1b-rasm) ko‘p miqdordagi yo‘lovchi poyezdlar yuk poyezdlarini quvib o‘tgan holda o‘tkaziladigan sharoitlarda yoki qabul-jo‘natish yo‘llaridan biri uchastkaning bosh nishabligiga yaqin joylashgan holatlarda quriladi. Shuningdek bunday razyezdlar bosh yo‘ning har ikkala tomonida yuk ortish-tushirish maydonchalarini joylashtirish zarur bo‘lgan holatlarda ham loyihalanaadi


Agar maydoncha uzunligi cheklangan bo'lsa (1600-1800 m), yarim bo'ylama turdagi razyezdlar quriladi (2a-rasm). Ular bo'ylama turdagi razyezdlardan qabul-jo'natish yo'llarining asosiy yo'l bo'ylab siljishi bilan farqlanadi. Yo'llarning siljish miqdori stansiya maydonchasining uzunligiga qarab turlicha bo'lishi mumkin, biroq kamida 450-500 m uzunlikdagi yo'lovchi poezdni foydali uzunlik doirasida, yo'lovchi binosi yonidagi asosiy yo'lga joylashtirish imkonini berishi lozim.



2-rasm. Yarim bo'ylama va ko'ndalang turdagi razyezdlar sxemasi: a – yo'llarning yarim bo'ylama holatda joylashuvi; b – yo'llarning ko'ndalang holatda joylashuvi;  $L_{st}$  – stansiya maydonchasining uzunligi; YB – yo'lovchi binosi

Ko'ndalang turdagi razyezdlar uchun 1100-1500 m uzunlikdagi stansiya maydonchasi talab etiladi. Ularning asosiy afzalligi – maydoncha uzunligining kichik bo'lishidir. (2b-rasm) Kamchiligi esa – qarama-qarshi yo'nalishlardan bir vaqtda poyezd qabul qilish sharoitlarining yomonlashuvi hamda to'xtamasdan kesishish holatiga o'tishda yo'l yotqizish uchun katta xarajatlar talab qilinishidir.

Mazkur jarayonda poyezdlarning to'xtashi, kutishi va qayta tezlanishi bilan bog'liq qo'shimcha vaqt yo'qotishlari yuzaga keladi. Natijada poyezdlar orasidagi interval ortib, uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyati pasayadi. Ayniqsa, harakat zichligi yuqori bo'lgan bir yo'lli temir yo'l uchastkalarida bu holat poyezdlar harakati grafigining buzilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bois poyezdlarni to'xtatmasdan kesishish texnologiyasini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiya poyezdlar harakatining uzluksizligini ta'minlash, vaqt yo'qotishlarini kamaytirish hamda temir yo'l uchastkasining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish imkonini beradi.



3-rasm. Ikki qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan poyezdni razyezdda kesishtirish

Bundan tashqari, poyezdlarni to'xtatmasdan kesishishni tashkil etish lokomotivlarning yoqilg'i va energiya sarfini kamaytirishga, harakat jadvalining barqarorligini oshirishga hamda temir yo'l infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, poyezdlarning bekor turib qolish vaqtlarining qisqarishi yuk va yo'lovchi tashish jarayonining tezkorligini oshiradi. Natijada temir yo'l transportining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari yaxshilanib, mavjud uchastkalarining qo'shimcha kapital xarajatsiz samaraliroq ishlashi ta'minlanadi.

### Razyezdda poyezdlarni to'xtatmasdan kesishtirish texnologiyasi

Poyezdlarni to'xtatmasdan kesishish texnologiyasi bir yo'lli temir yo'l uchastkalarida qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanuvchi poyezdlarning razyezd hududida to'xtatmasdan o'zaro kesishishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu texnologiya razyezdlarning yetarli uzunlikda loyihalanishi hamda poyezdlar harakati parametrlarini moslashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mazkur texnologiyaning asosiy afzalligi poyezdlarning to'xtash va qayta tezlanish jarayonlarini bartaraf etish orqali harakatning uzluksizligini ta'minlashdan iborat.

5-rasm sxemasida juft yo'nalashdan qabul qilindan poyezd avval, toq yo'nalishdan kelayotgan poyezd keyin kelgan hol uchun poyezdlarning uchta holati ko'rsatilgan:


5-rasmda poyezdlarni to'xtatmasdan kesishish jarayonining hisoblash sxemasi keltirilgan. Rasmda kesishish jarayonining uchta asosiy bosqichi (a – boshlang'ich holat, b – kesishish jarayoni, c – yakuniy holat) tasvirlangan.

a-holatda juft yo'nalishdagi poyezd kesishish hisobiy o'qidan o'tadi, toq yo'nalishdagi poyezd esa hali kesishish uchastkasiga kirib kelmagan bo'ladi. b-holatda poyezdlar kesishish hududida harakatlanadi va ularning o'zaro joylashuvi hisoblash uchun asosiy geometrik

parametrlarni aniqlash imkonini beradi. c-holatda kesishish jarayoni yakunlanadi va poyezdlar uchastkani tark etadi.

Rasmda keltirilgan  $L_1$  va  $L_2$  masofalar mos ravishda poyezdlarning ketma-ket holatlar orasida bosib o'tadigan yo'lini ifodalaydi.  $L_{h.juft}$  va  $L_{h.toq}$  kesishish o'qidan chiqish signallarigacha bo'lgan masofalarni,  $L_{poy}$  esa poyezd uzunligini bildiradi. Ushbu parametrlar asosida to'xtamasdan kesishish uchastkasining zaruriy uzunligini aniqlash mumkin.

To'xtamasdan kesishish uchastka uzunligini aniqlash uchun avvalo to'xtamasdan kesishish o'qidan chiqish signallarigacha bo'lgan masofalar: juft yo'nalishda  $L_{h.juft}$  va toq yo'nalishda  $L_{h.toq}$  (5-rasm) hisoblanadi. Juft yo'nalishdan kelayotgan poyezd kesishish hisobiy o'qidan o'tadi, toq yo'nalishdan kelayotgan poyezd esa hali kesishish uchastkasiga kirgan bo'lmaydi;



5-rasm. Poyezdlarning to'xtatmasdan kesishtirish uchun razyezdlarni hisoblash sxemasi: a – 1-holat; b – 2-bolat; c – 3-holat;  $L_{h.juft}$ , va  $L_{h.toq}$  – mos ravishda kesishish o'qidan juft va toq chiqish signallarigacha bo'lgan masofalar;  $L_{poy}$  – poyezd uzunligi;  $L_1$  – juft yo'nalish poyezdi birinchi holatdan ikkinchi holatga o'tguncha bosib o'tadigan masofa;  $L_2$  – toq yo'nalish poyezdi ikkinchi holatdan uchinchi holatga o'tguncha bosib o'tadigan masofa

– Toq yo'nalishdan qabul qilinayotgan poyezdning oxirgi vagoni kirish strelkasi chegara qoziqchasidan o'tib, izolyatsiyalamgan stikka yetadi va shu bilan peregonga yo'lni bo'shatadi. Shu paytda juft yo'nalishdan qabul qilingan poyezdning bosh qismi chiqish signalidan tormoz yo'li uzunligiga, shuningdek marshrutni o'rnatish va signalni ochish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha masofaga teng masofada bo'lishi kerak

– Toq yo'nalish poyezdi kesishish o'qidan o'tadi.

Birinchi holatdan ikkinchi holatgacha bo'lgan vaqt davomida juft yo'nalish poyezdi  $L_1$  (m) masofani bosib o'tadi:



$$L_1 = L_{h.juft} - \left( \frac{L_{poy}}{2} + 16,7 \cdot v_{juft} \cdot t_m + l_{t.juft} \right), \quad (1)$$

bunda  $L_{poy}$  – poyezd uzunligi;  
 $v_{juft}$  – juft yo‘nalish poyezdining kesishish o‘qidan ikkinchi holatgacha bo‘lgan tezligi;  
 $t_m$  – marshrutni o‘rnatish va signalni ochish vaqti (dispatcherlik markazlashtirilgan boshqaruvida 0,1-0,2 daqiqa);  
 $l_{t.juft}$  – juft yo‘nalishdan qabul qilingan poyezdning tormozlash yo‘li.  
 Sarf qilingan vaqt  $t_1$  (daqiqa):

$$t_1 = 0,06 \cdot \frac{L_1}{v_{juft}}. \quad (2)$$

Ikkinchi va uchinchi holatlar orasidagi  $L_2$  masofani toq yo‘nalishdan qabul qilinayotgan poyezd  $v_{k.toq}$  tezlikda quyidagi vaqt ichida bosib o‘tadi:

$$t_2 = 0,06 \cdot \frac{L_2}{v_{k.toq}} = 0,06 \cdot \frac{L_{h.juft} - \frac{L_{poy}}{2}}{v_{k.toq}}. \quad (3)$$

$t_1$  va  $t_2$  vaqtlarining yig‘indisi poyezdlarning turlicha vaqtda yetib kelish miqdorini tashkil etadi. Demak:

$$\Delta t = \frac{L_{h.juft} - \left( \frac{L_{poy}}{2} + 16,7 \cdot v_{juft} \cdot t_m + l_{t.juft} \right)}{16,7 \cdot v_{juft}} + \frac{L_{h.juft} - \frac{L_{poy}}{2}}{16,7 \cdot v_{k.toq}}. \quad (4)$$

Tenglamani  $L_{h.juft}$  ga nisbatan yechgan holda, quyidagi tenglikni olamiz:

$$L_{h.juft} = \frac{L_{poy}}{2} + \frac{(\Delta t + t_m) \cdot v_{juft} \cdot v_{k.toq} + l_{t.juft} \cdot v_{toq}}{0,06 \cdot (v_{juft} + v_{k.toq})} \quad (5)$$

Xuddi shunday, poyezdlar turlicha vaqtda yaqinlashganida kesishish o‘qiga birinchi bo‘lib toq yo‘nalishdan qabul qilinayotgan poyezd kelgan hol uchun kesishish o‘qidan toq yo‘nalishdagi chiqish signaligacha bo‘lgan masofani  $L_{h.toq}$  aniqlash formulasini ham chiqarish mumkin.

Yuqoridagi formulaning  $v_{juft}$ ,  $v_{k.toq}$ ,  $l_{m.juft}$  parametrlarning o‘rniga mos holda  $v_{toq}$ ,  $v_{k.juft}$ ,  $l_{m.toq}$  qiymatlar kiritiladi.

Chiqish signallari orasidagi kesishish uchastkasining uzunligi quyidagicha aniqlash mumkin:

Chiqish signallari orasidagi kesishish uchastkasining uzunligi quyidagicha aniqlash mumkin:

$$L_{uch} = L_{h.juft} + L_{h.toq} \quad (6)$$

Stansiyada kesishish uchastkasi ikki yo‘lli qo‘yilmani hosil qiladi uning to‘liq uzunligi esa bo‘g‘izlar uzunliklari qo‘shilganda quyidagicha ifodalanadi:

$$L_{st} = L_{uch} + L_{b.juft} + L_{b.toq} \quad (7)$$


Ikki yo‘lli qo‘yilmaning uzunligi poyezdlarning yurish tezliklari qiymatlariga hamda birinchi bo‘lib qo‘yilmaga kirgan poyezd tezligini pasaytirishiga bog‘liq.

Poyezdlarni to‘xtatmasdan kesishtirish uchun razyezdning talab etiladigan uzunligini hisoblab ko‘raylik:

Berilgan sharoitda, ya’ni poyezd uzunligi  $L_{poy}=1050\text{m}$ , juft yo‘nalishdan kirib kelayotdan poyezd tezligi  $v_{juft}=25\text{ km/soat}$ , toq yo‘nalishdan qabul qilinib, asosiy yo‘ldan o‘tib ketuvchi poyezd tezligi  $v_{toq}=40\text{ km/soat}$ , poyezdlarning yetib kelish vaqtlari farqi  $\Delta t=3$  daqiqa hamda marshrutni o‘rnatish va signalni ochish vaqti  $t_m=0,1$  daqiqa deb qabul qilingan holda hisoblashlar natijasida kesishish o‘qidan juft yo‘nalishdagi chiqish signaligacha bo‘lgan masofa  $L_{h.juft}=1320\text{ m}$ , toq yo‘nalishdagi chiqish signaligacha bo‘lgan masofa  $L_{h.toq}=1320\text{ m}$  ni tashkil etishi aniqlandi. Shunga ko‘ra chiqish signallari orasidagi kesishish uchastkasining umumiy uzunligi  $L_{uch}=2640\text{ m}$  ga teng bo‘lib, bo‘g‘izlar uzunliklari (har ikki tomondan 300-400 m) hisobga olinganda, poyezdlarni to‘xtatmasdan kesishtirishni ta’minlash uchun razyezdning to‘liq uzunligi taxminan 3300-3500 m bo‘lishi lozim.

### Poyezdlarni to‘xtatmasdan kesishtirish uchun razyezdlarni qayta qurish

Poyezdlarni to‘xtatmasdan kesishish texnologiyasini joriy etish yangi temir yo‘l liniyalarini loyihalash bosqichida ko‘zda tutilishi yoki mavjud razyezdlarni bosqichma-bosqich qayta qurish orqali amalga oshirilishi mumkin.



6-rasm. Poyezdlarni to‘xtatmasdan kesish uchun ajratish punktlarining qayta qurish sxemalari:  $L_{h.juft}$  va  $L_{h.toq}$  – to‘xtatmasdan kesishning hisobiy o‘qidan mos ravishda juft va toq yo‘nalishdagi chiqish svetoforigacha bo‘lgan masofa;  $L_{st}$  – stansiya maydonining uzunligi



Mavjud razyezdlarni qayta qurishda asosiy e'tibor to'xtamasdan kesishish uchastkasining joylashuviga qaratiladi. Ushbu uchastkaning joylashuvi razyezd maydonchasi o'qi bilan to'xtamasdan kesishishning hisobiy o'qining o'zaro joylashuviga bog'liq bo'lib, bu omil poyezdlarning xavfsiz va uzluksiz kesishishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi temir yo'l liniyalarini loyihalashda esa to'xtamasdan kesishish o'qlari poyezdlarning yurish vaqtiga oid tortuv hisoblari asosida hamda liniyaning talab etilgan o'tkazuvchanlik qobiliyatidan kelib chiqib aniqlanadi. Mazkur o'qlar razyezdlar va oraliq stansiyalar maydonchalari bilan o'zaro bog'liq holda joylashtiriladi.

6-rasmda poyezdlarni to'xtamasdan kesishish uchun ajratish punktlarini qayta qurish sxemalari keltirilgan. Ushbu sxemalarda to'xtamasdan kesishishning hisobiy o'qidan juft va toq yo'nalishlar bo'yicha chiqish svetoforigacha bo'lgan masofalar mos ravishda  $L_{h.juft}$  va  $L_{h.toq}$  bilan ifodalanadi, stansiya maydonining umumiy uzunligi esa  $L_{st}$  bilan belgilanadi.

Keltirilgan sxemalar razyezdlarni qayta qurishda kesishish uchastkalarining optimal joylashuvini aniqlash, shuningdek poyezdlar harakati parametrlarini muvofiqlashtirish orqali to'xtamasdan kesishish texnologiyasini samarali joriy etish imkonini beradi.

#### **Natijalar va muhokama**

Ushbu texnologiyani real temir yo'l uchastkasiga joriy etishning samaradorligini baholash maqsadida Buxoro-1 – Miskin bir yo'lli temir yo'l uchastkasi misolida tahlil amalga oshirildi. Mazkur uchastka uzunligi 365 km ni tashkil etib, u bir nechta razyezd va oraliq stansiyalar orqali ajratilgan.

7-rasmda ushbu uchastkada peregonlar uzunligi hamda poyezdlarning harakat vaqtlari taqsimlanishi keltirilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, peregonlar uzunligining va harakat vaqtlarining notekis taqsimlanishi poyezdlar kesishish jarayonida qo'shimcha kutish vaqtlarining yuzaga kelishiga olib keladi.

Shu bois ushbu uchastkada poyezdlarni to'xtamasdan kesishish texnologiyasini joriy etish orqali mavjud infratuzilmadan samaraliroq foydalanish hamda uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish imkoniyati mavjud.

Bir yo'lli temir yo'l uchastkalarida o'tkazuvchanlik qobiliyati, odatda, eng katta vaqt sarfi talab qiluvchi peregon bilan aniqlanadi. Mazkur uchastkada aynan shu peregonlar umumiy harakat jadvalining eng tig'iz holatini tashkil etib, poyezdlar harakatining ritmikligini buzadi va qo'shimcha kutish vaqtlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Natijada uchastkaning mavjud o'tkazuvchanlik qobiliyati harakat vaqtlari notekisligi bilan cheklanadi. Bu esa poyezdlar harakatini yanada zichlashtirish imkoniyatlarini pasaytiradi hamda mavjud infratuzilmadan foydalanish samaradorligini to'liq ta'minlamaydi.

Bundan tashqari, peregonlar bo'yicha harakat vaqtlarining keskin farqlanishi poyezdlarni razyezd va stansiyalarda uzoqroq kutib turishiga olib keladi. Bu holat nafaqat uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyatini cheklaydi, balki poyezdlar harakatining barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu poyezdlarni to'xtatmasdan kesishish texnologiyasini qo'llash mavjud infratuzilmadan samarali foydalanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bir yo'lli temir yo'l uchastkasining mavjud o'tkazuvchanlik qobiliyati quyidagicha topiladi


$$N_{mav} = \frac{(1440 - t_{tex}) \cdot \alpha_{mus}}{T_{davr}}, \quad (8)$$

bunda:  $t_{tex}$  – texnologik “okno” davomiyligi (aloqa va SMB qurilmalari, yo‘l inshootlari va boshqa qurilmalarni joriy ta‘mirlash): 1 yo‘lli uchastkalar uchun  $t_{tex}=60$  daqiqa;  
 $\alpha_{mus}$  – aloqa va SMB qurilmalari, yo‘l inshootlari va boshqa qurilmalarning mustahkamlik koeffitsiyenti: elektrovozli tortuvda  $0,93$ ; teplovozli tortuvda  $0,90$ ;  
 $T_{davr}$  – grafik davri (uchastkaning o‘tkazish qobiliyatini chegaralaydigan peregon uchun hisoblanadi), daqiqa,

(8) formuladagi  $T_{davr}$  qiymatini poyezdlarni kesishtirish 4 ta sxemasidan eng minimali tanlanadi va uning qiymati qabul qilinadi.

Mavjud sharoitda poyezdlarni kesishish jarayonining samaradorligini baholash maqsadida real temir yo‘l uchastkasi misolida kesishtirish sxemalari tahlil qilindi (8-rasm). Tahlil jarayonida poyezdlarning razyezdga kirishi, kesishishi hamda peregonlar bo‘yicha harakatlanish vaqtlari inobatga olindi. Shuningdek, mavjud texnologik sharoitda poyezdlarning tezlanish va sekinlanish jarayonlari uchastkaning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi baholandi.

Hisoblashlarda mavjud holatdagi tezlanish va sekinlanish vaqtlarining qiymatlari mos ravishda 3 va 2 daqiqa qilib qabul qilindi. Bundan tashqari, poyezdlarning kesishish nuqtasiga bir vaqtda yetib kelmasligi hamda kesishish intervali qiymatlari ham mos ravishda 3 va 2 daqiqa deb belgilandi. Mazkur parametrlar poyezdlar harakati xavfsizligini ta‘minlash va mavjud ekspluatatsion sharoitlarni real holatda aks ettirish maqsadida tanlandi.



8-rasm. Bir yo‘lli uchastkalarda poyezdlarni razyezdlarda kesishish sxemalari



Bir yo‘lli Buxoro-1 – Miskin temir yo‘l uchastkasida Turon – Miskin peregonining harakatlanish vaqti eng katta bo‘lishiga qaramasdan, ushbu peregon blok-post orqali ikki qismga ajratilgan. Natijada peregonning band bo‘lish vaqti qisqartirilgan hamda uchastkaning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga erishilgan. Shu sababli mazkur peregon hisoblashlarda eng og‘ir peregon sifatida qabul qilinmadi.

Bir yo‘lli Buxoro-1 – Miskin uchastkasining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini baholashda eng og‘ir peregon sifatida Xizirbobo – Jayxun peregoni tanlandi. Ushbu peregonda poyezdlar harakatlanish vaqti, kesishish sharoitlari hamda mavjud texnologik parametrlar inobatga olingan holda 4 ta turli sxema bo‘yicha hisoblash ishlari amalga oshirildi. Hisoblash natijalari asosida turli kesishish sxemalarining uchastka o‘tkazuvchanlik qobiliyatiga ta’siri baholanib, olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

Bir yo‘lli Buxoro-1 – Miskin uchastkaning chegaralaydigan peregoni uchun grafik davrini hisoblash natijalari

T/r	Texnologik amallar, daqiq	I sxema	II sxema	III sxema	IV sxema
1.	$t_{juft}$	52	52	52	52
2.	$t_{toq}$	52	52	52	52
3.	$t_{tez}$	3	3	3	3
4.	$t_{sek}$	2	2	2	2
5.	$t_{bk}$	3	3	3	3
6.	$t_{kes}$	2	2	2	2
7.	$T_{davr}$	114	114	114	114

1-jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki poyezdlarni bir yo‘lli peregonida kesishtirishning minimal davomiylik davri barcha sxemalar bo‘yicha bir xil,  $T_{davr}=114$  daqiqani tashkil etdi

Endi mavjud o‘tkazuvchanlik qobiliyatini hisoblaymiz:

$$N_{mav}^{dastlab} = \frac{(1440 - 60) \cdot 0,93}{114} = 11,26 \approx 11 \text{ juft poyezd.}$$

Poyezdlarni to‘xtatmasdan kesishtirishda esa tezlikning pasayishi hisobiga 1 daqiqa qo‘shimcha vaqt qabul qilamiz va o‘tkazuvchanlik qobiliyatini hisoblaymiz:

$$N_{mav}^{keyin} = \frac{(1440 - 60) \cdot 0,93}{105} = 12,23 \approx 12 \text{ juft poyezd.}$$

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, poyezdlarni to‘xtatmasdan kesishish texnologiyasini joriy etish orqali uchastkaning o‘tkazuvchanlik qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Xususan,



mavjud sharoitda o'tkazuvchanlik qobiliyati 11 juft poyezdni tashkil etgan bo'lsa, taklif etilgan texnologiya asosida bu ko'rsatkich 12 juft poyezdgacha oshadi.

Bu esa o'tkazuvchanlik qobiliyatining qariyb 10 foizga ortishini anglatadi. Natijada poyezdlar harakatining uzluksizligi ta'minlanadi, kutish vaqtlarining qisqarishi kuzatiladi hamda temir yo'l uchastkasidan foydalanish samaradorligi oshadi.

### **Xulosa**

Mazkur tadqiqotda bir yo'lli temir yo'l uchastkalarida poyezdlar harakatini tashkil etishning samaradorligini oshirish maqsadida poyezdlarni to'xtamasdan kesishish texnologiyasini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida razyezdlarning zaruriy uzunligini aniqlash bo'yicha hisobiy yondashuv ishlab chiqilib, poyezd uzunligi, yon yo'lga kirish tezligi, asosiy yo'ldan o'tish tezligi, tormoz yo'li uzunligi hamda poyezdlarning kesishish nuqtasiga yetib kelishidagi vaqt farqi kabi asosiy ekspluatatsion omillar kompleks tarzda hisobga olindi.

Shuningdek, poyezdlarni to'xtamasdan kesishish jarayonining sxematik modeli ishlab chiqilib, kesishish uchastkalarining joylashuvi va ularning geometrik parametrlariga qo'yiladigan talablar asoslandi. Mavjud razyezdlarni qayta qurish sxemalari tahlil qilinib, to'xtamasdan kesishish texnologiyasini amaliyotga joriy etishning konstruktiv yechimlari taklif etildi.

Buxoro-1 – Miskin temir yo'l uchastkasi misolida olib borilgan tahlillar peregonlar uzunligi va poyezdlar harakat vaqtlari notekis taqsimlanganligini ko'rsatdi. Ushbu holat poyezdlar kesishish jarayonida qo'shimcha kutish vaqtlarining yuzaga kelishiga va natijada uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyatining cheklanishiga olib keladi. Mavjud sharoitda uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyati 11 juft poyezdni tashkil etishi aniqlandi.

Taklif etilgan poyezdlarni to'xtamasdan kesishish texnologiyasini joriy etish natijasida kesishish jarayonidagi ortiqcha to'xtashlar bartaraf etilib, poyezdlar harakatining uzluksizligi ta'minlanadi. Hisoblash natijalariga ko'ra, ushbu texnologiyani qo'llash orqali uchastkaning o'tkazuvchanlik qobiliyati 12 juft poyezdgacha oshadi, bu esa taxminan 10 foiz o'sishni tashkil etadi.

Bundan tashqari, mazkur texnologiyani joriy etish lokomotivlarning yoqilg'i yoki elektroenergiya sarfini kamaytirish, harakat tarkibining eskirish darajasini pasaytirish hamda yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, razyezdlarni optimal uzunlikda loyihalash yoki qayta qurish orqali mavjud infratuzilma sharoitida katta kapital qo'yilmalarsiz ham samaradorlikka erishish mumkinligi asoslab berildi.

Olingan natijalar bir yo'lli temir yo'l uchastkalarida harakatni tashkil etishni takomillashtirish, kesishish jarayonlarini optimallashtirish hamda ularning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari**

1. Хусенов У.У., Суюнбаев Ш.М. Энергоэффективная методика скрещения поездов на однопутных железнодорожных участках // Научный журнал транспортных средств и дорог. – 2025. – №1. – С. 85-97.



- 
2. Khusenov U., Masharipov M., Suyunbayev Sh., Toychiyev J. Methods to increase the throughput and carrying capacity of the “Angren–Pop” railway section in line with expected transit freight flows from the “China–Uzbekistan–Kyrgyzstan” railway project // *Mathematical Models in Engineering*. – 2025. – Vol. 11, Issue 4. – P. 187–203. <https://doi.org/10.21595/mme.2025.25567>
  3. Amit I., Goldfarb D. The timetable problem for railways // *Developments in Operations Research*. – 1971. – Vol. 2, №1. – P. 379–387. <https://www.jstor.org/stable/3007955>
  4. Yang L., Li K., Gao Z. Optimizing trains movement on a railway network // *Omega*. – 2012. – №40(5). – P. 619–633. <https://doi.org/10.1016/j.omega.2011.12.001>
  5. Xu X., Li K., Yang L., Ye J. Balanced train timetabling on a single-line railway with optimized velocity // *Applied Mathematical Modelling*. – 2014. – №38(3). – P. 894–909. <https://doi.org/10.1016/j.apm.2013.07.023>
  6. Dorfman M., Medanic J. Scheduling trains on a railway network using a discrete event model of railway traffic // *Transportation Research Part B: Methodological*. – 2004. – №38(1). – P. 81–98. [https://doi.org/10.1016/S0191-2615\(03\)00006-7](https://doi.org/10.1016/S0191-2615(03)00006-7)
  7. Higgins A., Kozan E., Ferreira L. Optimal scheduling of trains on a single line track // *Transportation Research Part B: Methodological*. 1996. – Vol. 30, №2. P. 147–161. [https://doi.org/10.1016/0191-2615\(95\)00022-4](https://doi.org/10.1016/0191-2615(95)00022-4)
  8. International Union of Railways (UIC). Capacity of Railways // UIC Code 406. – Paris, 2013. – URL: [https://uic.org/IMG/pdf/capacity\\_leaflet406.pdf](https://uic.org/IMG/pdf/capacity_leaflet406.pdf)
  9. Pachel J. *Railway Operation and Control*. – 2nd ed. – Berlin: Springer, 2009. – 356 p. – URL: <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-540-70534-9>
  10. Szpigel B. Optimal train scheduling on a single line railway // *Transportation Science*. – 1973. – Vol. 7, №3. – P. 344–351. <https://pubsonline.informs.org/doi/10.1287/trsc.7.3.344>
  13. Asian Development Bank (ADB). *Central Asia Regional Economic Cooperation* <https://www.carecprogram.org>
  14. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *Euro-Asian Transport Links*. <https://unece.org/transport>
  15. United Nations ESCAP. *Transport Connectivity in Asia and the Pacific*. <https://www.unescap.org>
  16. OECD. *Trade and Transport Corridors*. <https://www.oecd.org>
  17. World Bank. *Transport and Logistics in Central Asia*. <https://www.worldbank.org>



---

## TRANSPORT VOSITALARIDA SHINA ICHKI BOSIMI VA HARORATINI NAZORAT QILISHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNING SAMARASI

**Jumabekov Atabek Baxtibay o'g'li**

Magistratura talabasi, Toshkent davlat transport universitet

**Yusupov Umidbek Boltayevich**

DSc, dotsent, Toshkent davlat transport universitet

**Annotation:** Avtotransport vositalarining ekspluatatsiya samaradorligi va harakat xavfsizligini taminlashda shina ichki bosimi va haroratini doimiy nazorat qilish muhim hisoblanadi. Ushbu parametrlarning meyordan chetga chiqishi shinalarning tez yeyilishi, yoqilgi sarfi ortishi va avariya xavfini oshiradi. Shu sababli Tire Pressure Monitoring System (TPMS) va KODA kabi intellektual monitoring tizimlari dolzarb hisoblanadi. Bu tizimlar sensorlar yordamida shinalar holati boyicha ma'lumotlarni real vaqt rejimida yigish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Natijada transport vositalarining ekspluatatsiya samaradorligi oshadi, texnik xizmat xarajatlari kamayadi va harakat xavfsizligi yaxshilanadi.

**Keywords:** shina ichki bosimi, shina harorati, intellektual tizimlar, transport xavfsizligi, real vaqt monitoringi, TPMS, KODA.

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ КОНТРОЛЯ ВНУТРЕННЕГО ДАВЛЕНИЯ И ТЕМПЕРАТУРЫ ШИН ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ

**Жумабеков Атабек Бахтыбай улы**

Магистр, Ташкентский государственный транспортный университет

**Юсупов Умидбек Болтаевич**

DSc., доцент, Ташкентский государственный транспортный университет

